

## EPOSGA MUROJAAT QILGANDA...

**Hakimova S.M**

*O'zbekiston Davlat Sa'nat va Madaniyat instituti magistranti.*

**Annotatsiya:** *Eposlar xalqning ko'p ming yillik ma'naviyati namunalarini o'zida jamuljam etadi. Xalq eposida ma'noni teranlashtiradigan, fikrlashga undaydigan badiiy san'atlarning qo'llanishini o'rganish orqali ijrochi so'z nafosati, sehri va qudratini eshituvchi mushohada quvvatini oshiradi.*

**Kalit so'zlar:** *Epos, vatanparvarlik, fantaziya, eposshunoslik, yuksalma, baxshi, asotir, diffuziya, qomusiy, quvvai-hofiza, inssenirovka, novatorlik, individual.*

## ПРИ ПРИМЕНЕНИИ К ЭПИЧЕСКОМУ...

**Хакимова С.М.**

*Степень магистра Узбекского государственного института искусств и культуры.*

**Аннотация:** *В эпосах воплощены многотысячелетняя духовность народа. Изучая использование искусств, которые углубляют смысл и стимулируют мышление в народных эпосах, исполнитель усиливает тонкость, магию и силу слова, силу слухового наблюдения.*

**Ключевые слова:** *Эпос, фантазия, эпистемология, церемония, бахши (эпический певец), легенда, распространение, энциклопедия, сильная память, инсенировка, инновации, индивидуальный.*

## WHEN APPLYING TO THE EPIC...

**Hakimova S.M**

*Master's degree from the Uzbek State Institute of Arts and Culture*

**Annotation:** *The epics embody the millennial spirituality of the people. By studying the use of arts that deepen the meaning and encourage thinking in folk epics, the performer increases the subtlety, magic and power of the word, the power of the listener in observation.*

**Keywords:** *Epos, loyalty, fantasy, epistemology, ceremony, bakxshi (epic singer), legend, diffusion, encyclopedia, strong memory, innovation, individual.*

O'zbek xalq eposi umuminsoniy g'oyalarni ilgari surishi, obrazlar olamining xilma-xilligi, tarixiyli bilan boshqa xalqlar eposi merosi ichida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Eposlar ko'p asrlar davomida xalqlarning osoyishtaligi, tinchligi, ular o'rtasidagi birdamlikni mustahkamlash, farovon turmush va erkin hayot uchun kurash kabi komillik ruhida tarbiyalashda tengi yo'q g'oyaviy-badiiy omil bo'lib kelmoqda. Shuning uchun hamki, eposlarda tarannum etilgan vatanparvarlik g'oyalari bundan keyin ham xalq hayotida ulkan tarbiya vositasi sifatida xizmat qilib keladi.

O'zbek xalq eposlari o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab o'rganilib, jiddiy e'tibor bilan qaralib, ilmiy tadqiq etib kelinmoqda. Mana shu davrlar mobaynida xalq dostonlarining juda ko'p nodir namunalari mashhur baxshilarimiz tilidan yozib olinib nashrga tayyorlandi. Ko'plab dostonchilik maktablari yaratildi, ularning yirik namoyondalari aniqlandi, ular to'g'risida yuzlab maqolalar, monografiyalar chop etildi, yirik-yirik tadqiqotlar amalga oshirildi. Va mana shular natijasida o'zbek eposshunosligiga asos solindi. Bular nafaqat o'zbek eposshunosligiga asos bo'ldi, balki, bu sohaning asosiy prinsplarini ham belgilab berishga xizmat qildi. Ma'lumki, epos ommaning ko'p ming yillik ma'naviyati namunalarni o'zida jamuljam etgan badiiy in'ikos turlaridan biri sanaladi. Zero, epos yaratuvchi xalq qadriyatlarining turli qirralarini qomusiy qamrab olgandir.

Milliy mustaqillikka erishgan o'zbek xalqi uchun an'anaviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish qanchalik muhim ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa, badiiy tafakkur taraqqiyotining tarixini, xususan, eng qadimgi qahramonlik dostonlarining vujudga kelishi va tadrijiy rivojini aniqlash vazifasi shu qadar dolzarb umumestetik muammoga aylanib bormoqda. Negaki epos ibtidosi san'atlar sarchashmasiga qorishiqlik (sinkretizm) davri bilan bog'langan bo'lib, uning takomilini sinchiklab kuzatish folklor janrlari doirasidagina emas, balki so'z san'ati va umuman san'at tarixiga ham tegishli yangi hulosalarni keltirib chiqarishi mumkin. [4]

Turkiy xalqlar qahramonlik eposining tadrijiy taraqqiyoti yuzasidan V.Jirmunskiy, X.Zarifov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov va boshqa olimlar munosabat bildirganliklari ma'lumdir. Lekin shunga qaramay, eposning yaralishi uchun ijodkor omma orasida ehtiyoj uyg'otgan bir necha ijtimoiy sabablar borki, bular ehtiyojning ro'yobga chiqishida asotir qahramonlik ertagi epos ko'rinishidagi o'ramli yuksalma (spiralsimon) taraqqiyot kechimi, ibtidoiy janrlararo munosabatta mazmun va shakl unsurlarining bir-biriga singishi (diffuziyasi) kabi masalalar yanada kengroq va chuqurroq yondashuvni talab qiladi. [2]

Muxtor Auezov: "Epos o'tmishning o'lmas va donishmand hikoyachisi bo'lib, bizga asrlar nafasini olib keladi. Undagi inson ko'z o'ngimizda o'zining azaliy o'y-fikrlari, hayoloti, baxt haqidagi qo'l yetmas orzulari, bu yo'ldagi asrlar osha kurashi bilan namoyon bo'ladi va beixtiyor shuurimizga kirib ketadi", - deb yozgan edi. Eposga murojaat qilganda, ijodkor ulkan qomus bilan to'qnashib makon va zamon chegaralarini oshib o'tadi, o'zligiga qaytadi, azaliy qadriyatlarga duch keladi. V. L. Jirmunskiy so'zlari bilan aytganda "eposlar xalqning tarixiy o'tmishi ifodasi, dunyoqarashi va madaniyatining tajassumi" dir.[1]

Xalq eposida ma'noni teranlashtiradigan, fikrlashga undaydigan badiiy san'atlarning qo'llanishini o'rganish orqali ijrochi so'z nafasoti, sehri va qudratini eshituvchi mushohada quvvatini oshirishga yo'naltirishi mumkin.

- Milliy eposdagi o'ziga xos teatr zahirasini ijrochilik nuqtai nazaridan o'rganish avvalo xalq donishmandligini idrok qilish, qolaversa sahna ijodkorlari fantaziyani kengaytirish, sahna tilini boyitish, so'z qudratini oshirish, milliy qiyofalar yaratishda yangi badiiy imkoniyatlarni qo'lga kiritish uchun ahamiyatlidir.
- Epos tilida badiiy so'z san'ati na'munalarini qo'llash xalq badiiy poetik ijodkorligining alohida sifati bo'lib so'z qudratini oshirishda dramaturgiya tilini boyituvchi milliy tagzamindir.
- Xalq dostonchiligidagi ustoz-shogirdlik a'loqalari, quvvai-hofiza, ijrochilikdan ijodkorlik sari o'sish, badihago'ylik, sog'lom ijodiy raqobatni

yo'lga qo'yish, o'zaro o'rganish va ta'sirlanish kabi sifatlar epos ijrochiligining muhim hususiyatlaridir.

- Epos ijrochiligi an'analari bugungi xalq og'zaki ijodi an'alarini bardavomligida ijodkorning ijodiy tarbiyasida nihoyatda muhim ahamiyatga egadir. [2]

Yozuvchi Chingiz Aytmatov qahramonlik eposini adabiyotga olib kirishda novatorlik ko'rsatdi. U inssenirovka qilish bilan cheklanmadi, balki ulkan eposning kichik zarralari, ya'ni ayrim rivoyat va hikoyatlarini asarlariga sig'dirishdek murakkab masalaga e'tibor qaratib, yangi yo'nalishga asos soldi. Turkman adabiyotining yirik namoyondalaridan Maxtumquli, Mullanafas, Shobanda, Saidiy xalq ijodida mavjud qadim dostonlarni yozma adabiyotga olib kirganlar. [3] Qadim "Alpomish" dostoni qahramonlik dostoni sifatida xalqimizning davlatchilik borasidagi qarashlari, insonning jamiyatdagi o'rni, kishi umrining mazmuni tevaragidagi fikrlarni jamlab, goh hayotbaxsh, goho mahzun kechinmalarni chuqur ramziylikda donishmandlarcha aks ettirgan. Zotan, turkiylar tarixi ichki va tashqi dushmanlar bilan kurash tarixidan iborat. Xalqlar qachondir mana shu ichki nizolar va o'zaro kurashlar barham topishini, jamiyatda haqiqat, siyosatda odillik hukumronlik qilishini, tinch va farovon kunlarga yetishni kutib yashaganlar va bu tasavvurlarini o'z Alpomishlarida mujassamlashtirganlar.

Xalq yaratgan narsalarda tabiat bilan yaqinlik qaysidir jihati bilan saqlangan bo'ladi. Muayyan shaxs ijodiy-amaliy mehnatining mahsuli esa, odatda, bunday yaqinlikni yo'qotib, murakkab mavhumot bilan yo'g'riladi va individual xossalari bilan omma diqqatini tortadi. Agar yozma adabiyot namunalari qadimdan xat vositasida o'zgaras tarixiy-adabiy yodgorlikka aylanavergani bo'lsalar, epos, aksincha, yozuvga bog'lanib qolmay, ko'p asrlik jonli ijroda tabiat singari o'zgarib, yasharib, sayqal topib boravergan. Qahramonlik dostonining tarixan shakllanish jarayonini kuzatish ana shu jihatdan qiziqarlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Eshonqulov J. “Alpomish” dostoni va “Dada Qo‘rqut kitobi” dagi tutqunlik motivining qiyosiy tahlili. “Alpomish” – o‘zbek xalq qahramonlik eposi to‘plamida. – Toshkent: Fan, 1999.
2. Tojiboyeva O. Markaziy Osiyo teatrlari tarixida xalqlar eposining o‘rni. – Toshkent, 2012, dis.
3. Yormatov I. O‘zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati. – Toshkent, 1994, dis.
4. Eshonqulov J. Mif va badiiy tafakkur. – Toshkent, 2019.